Biznes subyektlari auditida soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tayyorlash usulini qo'llash xususiyatlari	786
Tajekeev Ziyatdin Kobeysinovich	
Biznes jarayonlarni modellashtirishning nazariy asoslari	791
Mullajonova (Matchanova) Shaxsanam Taxiroyva	
Raqamli xizmatlar bozori: elektron tijorat orqali xizmat ko'rsatishning yangi bosqichlari	796
Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali Qizi	
"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati va uni barqarorlashtirishning ahamiyati	800
Musurmankulova Gulchehra Isabekovna	
Ekologik turizm nuqtai nazaridan turizm marketingining usullari va asosiy vositalarining xususiyatlari	806
Yokubjonova Xulkarbonu Yokubovna	
O'zbekiston iqtisodiyotida turizmning o'rni va rivojlanish istiqbollari	815
Qosimova Fazilat, Kalandarov Ravshan	
Korporativ strategiyani ishlab chiqish bosqichlarining tahlili	819
Xidirova Marg'uba Rustamovna, Abduvasiyeva Marjona Anvarovna	



Mamlakatimiz turizmini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha o'tkazilayotgan islohotlarning o'rni.....	823
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Nuridinov Bexruz Akbar o'g'li	
Hududlarda tadbirkorlarning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlariga undovchi omillarning empirik tadqiqoti.....	829
Irgasheva Gulbahor	
Davlat vositalari yordamida innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish yo'nalishlari	836
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Важность качества управления на предприятиях общественного питания.....	842
Абдуллаева Зульфия Иззатовна, Махмудов Суннатжон Абдужаббор Угли	
O'zbekistonda "yashil" moliyalashtirishni rivojlantirish yo'nalishlari	848
Shaislamova Nargiza Qabilovna	
Mahalliy budjetning qo'shimcha daromadlarini shakillantirish yo'nalishlari.....	856
Yuldashev Javohirbek Ikromjon o'g'li	
Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari	860
Ro'zimatova Nigora Abdullaevna	
Принципы «справедливой стоимости» в мсфо: достоинства и проблемы применения в банках узбекистана	869
Айтмуродова Рушана Бахтиеровна	
Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishning nazariy jihatlari	876
Allaberganova Asalxon Kadirovna	
Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish tartibini takomillashtirish	880
Xasanov Ruslan Raxmatovich	
Yirik soliq to'lovchilar va ularning investitsiyaviy faolligini investitsiyaviy chegirmalar orqali rag'batlantirish	883
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlashda foydalaniladigan tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlar.....	888
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari	894
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....	900
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar"dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	



Yashil iqtisodiyot - bu inson hayotiy darajasini yaxshilaydigan hamda ijtimoiy tenglikni mustahkamlaydigan, shu bilan bir qatorda ekologik xavf va tanqislikni kamaytiradigan iqtisodiyotdir.

Bu iqtisodiyot turi ekologik iqtisodiyot bilan uzviy bog'liq bo'lib, ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yo'nalishga ega. UNEP 2011 Yashil Iqtisodiyot hisobotida ta'kidlanishicha, „yashil bo'lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli bo'lishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o'lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o'tishni ta'minlashni nazarda tutadi.[1]“ Yashil iqtisodiyot sayyoramizning ekologik chegaralarida hamma uchun farovonlikni ta'minlaydigan tizim. Yurtimiz ham ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar qatori “Yashil iqtisodiyot”ni qo'llagan holda mamlakat iqtisodiyotini, undagi ekologik tizim va aholi yashash darajasini takomillashtirish yo'lini tanladi. Aynan bu iqtisodiyot turi beshta asosiy tamoyilga amal qiladi, ularning har biri xalqaro siyosatdagi muhim pretsedentlarga tayanadi va ular quyidagilar hisoblanadi [2]:

- 1.Salomatlik tamoyili
- 2.Adolat tamoyili
- 3.Sayyora chegaralari tamoyili
- 4.Samaradorlik va yetarlilik tamoyili
- 5.Yuqori darajadagi boshqaruv tamoyili

O'z vaqtida iqlim o'zgarishining oldini olish hamda uning salbiy oqibatlarini yumshatish, iqlim o'zgarishiga moslashish choralari ko'rilmasa, aks holda milliy iqtisodiyot jiddiy to'siqlarga duch kelishi mumkin.

Bugungi kunda global muammoga aylanib borayotgan iqlim o'zgarishiga moslashish va mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirish, turli sohalarda suv, energiya resurslarini tejash, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, shu bilan birga, qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish bo'yicha tezkor chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Butun dunyo mamlakatlari oldida eng oliy maqsadlardan biri iqtisodiy yashillikka erishish, global ekologik muammolarni bartaraf qilish, bu orada mamlakat iqtisodiyoti samaradorlik ko'rsatkichini barqarorlashtirish kabi mas'uliyatli vazifalari belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishishda O'zbekiston ham xorij tajribalarini atroflicha o'rganib o'z qonuniyatlariga mos keluvchi usullardan foydalanib yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni bosqichlarini takomillashtirish zarur bo'ladi. 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasida ham ayni shu maqsadlar ko'zlangan. Eng avvalida yashil moliyalashtirishga erishish uchun yashil moliya haqida keng tushunchalarga ega bo'lish, global ekologik muammolarga yechim topish jarayonida xorijiy olimlar tadqiqotlarini o'rganish zarurati bor. Xususan, xorijiy iqtisod olimlaridan

O.V. Bogacheva va O.V. Smorodinov yashil moliya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlariga ko'ra quyidagicha: “atrof-muhitni yaxshilashga, global iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishga va resurslardan yanada samarali foydalanishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarga taklif qilinadigan moliyaviy xizmatlar” ta'rifni e'tirof etishgan[3]. Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha ravishda aytilish mumkinki, yashil moliya bozorga asoslangan investitsiya yoki kreditlash dasturlarini nazarda tutadi, bu xavflarni baholashda atrof-muhitga ta'sirni hisobga oladi yoki biznes qarorlarini qabul qilish uchun atrof-muhitni rag'batlantiradi. Shu sababli, mavjud iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilgandan so'ng, yashil moliyani uchta asosiy jihatda tushunish mumkin:

- iqtisodiy faoliyatni yashillashtirish bilan bog'liq texnologik jarayonlar;
- loyihalarni moliyalashtirish usullarining assortimenti;
- yashil loyihalarini moliyalashtirish bilan shug'ullanadigan banklar va sug'urta kompaniyalari kabi moliyaviy institutlar guruhini tuzishni nazarda tutadi.

“Ural davlati O'rmon xo'jaligi universiteti” prorektori, iqtisod fanlari nomzodi Vukovich Natalya Anatolevna o'z ilmiy izlanishlarida mamlakatda ijtimoiy farovonlikni ta'minlash uchun eng avvalo, iqtisodiy o'sish va atrof-muhit hamda inson salomatligini muhofaza qilish tengligini amalga oshirish kerak. “Yashil” iqtisodiyotni tatbiq etish uchun davlat institutlarining sifatini oshirish (muayyan qoidalarni joriy etishning o'zi kifoya emas, ularni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish kerak) va byudjet oqimlarini asosiy yo'nalishlarni rivojlantirishga ommaviy qayta yo'naltirish zarur.[4] Ana shunda hududda “yashil iqtisodiyot” ga erishish mumkin.

Iqtisod fanlari bo'yicha yosh izlanuvchilardan biri bo'lgan Bhavani Prakash o'zining “Yashil iqtisodiyotning muammolari va istiqbollari” nomli maqolasida Janubiy Koreyada hukumat iqtisodiyotni yashil rivojlantirishga yo'naltirishda yetakchi rol o'ynaydi. Daryolarni tozalash bo'yicha “To'rt daryo” loyihasiga 1,5 milliard dollar sarmoya kiritilib, 350 ming ish o'rni yaratildi. Bunday loyihalar nafaqat iqtisodiyotning ekologik infratuzilmasini, balki uning kelajakdagi resurslarni yaratish uchun muhim bo'lgan samarali tabiiy kapitalini ham yaratadi. Energiya samaradorligini oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Hisob-kitoblarga ko'ra, yashil iqtisodiyotga erishish orqali AQShda oxirgi 4 yil davomida 100 milliard dollarlik sarmoya bilan 4 million yangi ish o'rni yaratishi



mumkin. Hindiston 2025-yilgacha biomassani gazlashtirish sohasida 900 ming ish o'zni yaratishi mumkin [5], deya keltirib o'tdi.

Xorijlik tadqiqotchi Moshe Terdimanning fikriga ko'ra, Yashil iqtisodiyot oltita asosiy yo'nalishlardan iborat, jumladan:

- qayta tiklanadigan energiyani ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni rag'batlantirish hamda aholida energiya iste'moli standartlarini ishlab chiqish;
- yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni rag'batlantirish va ishlab chiqarish, import, eksport va reeksportga ko'maklashish;
- yashil shaharlar, yashil qurilish va ekologik toza transportni rejalashtirish;
- sanoat va savdo maydonlaridan uglerod chiqindilari, organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish va biologik xilma-xillikni saqlash;
- suv resurslari, elektr energiyasi va tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish, suvni qayta ishlash va ekologik ta'limni rivojlantirish [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sayyora chegaralari insoniyat hamda iqtisodiyotimiz taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ekologik xavfsiz zonalarini belgilaydi. Yerning iqlimi va ekologiyasi barqaror bo'lishi uchun kerak bo'lgan to'qqizta sayyora chegarasidan biz allaqachon beshtasini buzdik. Shu sababdan ham umumiy qilib aytganda ekologik tizimni qayta barqaror holatga keltirish zarur bo'lib qoldi.

Iqtisodiyotning ko'plab yashil tarmoqlarida investitsiya qilish uchun hamda qiymat va ish o'rinlari yaratish uchun yuqori potensial bor. Yashil iqtisodiyotga o'tish tufayli yo'qotiladigan qiymat, bizneslar va ish o'rinlarini biz "bunyodkor vayronkorlik" (creative destruction) deb atashimiz mumkin, chunki yo'qotilganlar o'rnini barqaror bizneslar va ularning ishchilari egallaydi. Natijada esa bundan jamiyat, kelajak avlod foyda ko'radi.

Misol uchun International Labor Organisation reportiga ko'ra, 2030-yilgacha Yashil Iqtisodiyot tufayli 24 million qo'shimcha ish o'zni yaratiladi. Unda keltirilishicha, 163 ta iqtisodiyot sektorlarida qo'shimcha ish o'rinlari yaraladi, faqatgina 14 ta sektor umumiy 10 ming ish o'rnini yo'qotishi mumkin. Muqobil energiya sektorida 2.5 millionta ish o'zni yaraladi, buning narxi esa Fossil Fuel (qazilma yoqilg'ilar) ga asoslangan tarmoqlarda yo'qotilgan 400 ming ish o'zni qoplanadi.[7]

Iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi bo'lgan yashil iqtisodiyotga o'tish bosqichlaridan dunyo rivojlangan davlatlari bu borada ancha yo'lni bosib qo'ydi. Shunday ekan ularni tajribasini O'zbekiston ham alohida o'rganib chiqishi kerak bo'ladi.

Birgina ham iqtisodiy ham ijtimoiy jihatdan odimlab ketayotgan Germaniya davlatini oladigan bo'lsak, aynan yashil iqtisodiyotga o'tishi uchun sabab bo'luvchi asosiy ko'rsatkichlarni quyida keltirib o'tsak (1-rasm).



1-rasm. Germaniya Federativ Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishi uchun asosiy sabablar[8].




2050-yilga kelib Germaniya 20% elektr ta'minotidan 70% ta'minotiga o'tishni rejalashtirdi, oqibatda butun sanoat tarmoqlarining energiyaga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi. Qayta tiklanadigan yoki boshqa nol uglerod manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqarish kuchaytirilib, qazib olinadigan yoqilg'i elektr stansiyalari bosqichma-bosqich to'xtatilishi amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat sanoatida ham birmuncha o'zgarishlar qilinishini maqsad qilib qo'ydi, jumladan aniq va qayta tiklanadigan tuproq unumdorligini oshirish hosildorlikni ham oshiradi, iste'mol uchun yer va chuchuk suvdan kamroq foydalanishni talab qiladigan kaloriya manbalariga o'tadi, bu esa o'z navbatida oziq-ovqat chiqindilarini kamaytiradi. Qishloq xo'jaligi yerlari va o'rmonlarga bosim ko'tarilib, millionlab gektar maydonlarni tabiatga qaytarish imkoniyatini beradi.

Yashil iqtisodiyot butun Osiyo va Tinch okeani mintaqasida iqtisodiyot, investitsiyalar, kapital va infratuzilma, bandlik va malakalarga hamda ijobiy ijtimoiy va ekologik natijalarga yangicha qarashni ta'minlaydi.

Yel universitetining Atrof-muhit samaradorligi indeksi tomonidan taqdim etilgan quyidagi reytingdan "Yashil" iqtisodiyot sari borayotgan eng kuchli mamlakatlar ro'yxatini keltirib o'tamiz (2-rasm).



2-rasm. Yashil iqtisodiyoti rivojlangan kuchli 10 talik davlatlar (2023-yil) [9].


O'rtacha global ekologik ball - 43, 1 mumkin bo'lgan eng past ball va 100 – eng yuqori ko'rsatkichni belgilaydi.

Ushbu reyting Yelning Atrof-muhit qonuni va siyosati markazi tomonidan tuzilgan eng so'nggi Ekologik samaradorlik indeksi (EPI) natijalariga asoslanadi.

Daniya 2005-yildan 2018-yilgacha emissiyasini 23 foizga qisqartirishga muvaffaq bo'ldi va uglerod chiqindilarining intensivligi Yevropa Ittifoqi (EI) o'rtacha darajasidan 43 foizga past.

Buyuk Britaniya, uglerod chiqindilarini 2030-yilga kelib 1990-yilga nisbatan 68 foizga, 2035-yilga kelib esa 77 foizga kamaytirishni maqsad qilgan.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) statistik ma'lumotlariga ko'ra, Finlyandiya dunyodagi eng toza havoga ega mamlakat hisoblanib, hozirda ushbu mamlakat maishiy isitish tizimini karbonsizlantirmoqda va issiqlik nasoslarini o'rnatish bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga kiradi, 100 000 kishiga 24 159 issiqlik nasosi to'g'ri keladi (3-rasm).



3-rasm. 2017–2023-yillarda dunyo bo‘ylab chiqarilgan yashil obligatsiyalar hajmi (mlrd. AQSH dollari) [10].

Jadval ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, dunyo bo‘ylab “yashil” infratuzilmaga xususiy kapitalni jalb qilish, “yashil” moliyalashtirishni yanada kengroq targ‘ib qilish uchun yashil obligatsiyalarni muomalaga chiqarish hajmi 2017–2023-yillar davomida o‘shish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Aynan 2021-yilda jahon bo‘ylab muomalaga chiqarilgan obligatsiyalar 94,5 % ga yetganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yashil obligatsiyalar uchun bo‘lgan talab yildan –yilga kamayishni emas, balki ortishni boshlagan va bu obligatsiyalar mamlakatda jalb qilingan kapital hajmini o‘shishiga olib kelgan. Iqtisodiyotda yashil moliyaviy instrumentlar ko‘lamining kengayishi mamlakatda “yashil” iqtisodiyotning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida Barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta’minlash uchun “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste’moldagi ulushini 40 foizga yetkazish;
- Sanoatda “yashil sertifikat” lar bozorini rivojlantirish va “ekologik markirovkalash” amaliyotini joriy qilish;
- 3 GVt quvvatli 3 ta issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish orqali tabiiy gaz sarfini kamaytirish;
- Ko‘p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholash tizimini joriy etish;
- Shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg‘iga o‘tkazish;
- Iqlim o‘zgarishi sohasida barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini (MRV) yaratish;
- Issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 2010-yildagi darajadan 30 foizga qisqartirish.

Bu maqsadlarga erishish uchun mamlakat iqtisodiyoti yashil moliyaviy instrumentlar, obligatsiyalar, kreditlarga ehtiyoj sezadi. Shu sababli, Respublikada loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha yetakchi tashkilot bo‘lgan tijorat banklarida “yashil” kredit va obligatsiyalarni keng miqyosda joriy qilish o‘rinli deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikamizda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi asosidagi maqsadlardan biri iqtisodiyotni rivojlantirish hamda yuqori o‘shish sur‘atlarini ta’minlash uchun barcha sohalarda “yashil” iqtisodiyot texnologiyalarini joriy etishdan iborat.



Chunonchi, “Yashil” iqtisodiyotga o’tish suv resurslaridan noqilona foydalanish, havoning ifloslanishi, o’rmonlarning qisqarishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi hamda iqlim o’zgarishi kabi ekologik muammolarni hal etishda yordam beradi.

Xorijlik iqtisodiy olimlarning fikriga ko’ra, yuqori darajadagi IT ko’nikmalariga ega bo’lgan aholi ulushining o’sishi “yashil” bandlikning o’sishiga boshqa tashqi omillarga qaraganda ko’proq ta’sir qilar ekan. Mamlakat aholisi IQ darajasining 1%ga oshishi “yashil” bandlikning 0,98%ga oshishiga imkoniyat beradi. Shunga ko’ra quyidagi xulosa va takliflarni berib o’tmoqchimiz:

Birinchidan, oliy ma’lumotga va yuqori darajadagi IT-ko’nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashning ekologik muammolarni hal qilishdagi roli katta bo’lganligi sababli mamlakat oliy o’quv yurtlarida “yashil” iqtisodiyotga o’tish uchun eng zarur mutaxassisliklar bo’yicha kadrlarni, biotexnologlar, muqobil energetika, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish bo’yicha muhandislar, iqlim xavfini baholash bo’yicha kadrlarni tayyorlash yo’lga qo’yilishi kerak.

Ikkinchidan, insoniyat oldida turgan dolzarb muammo - bu atrof-muhit va inson salomatligiga zarar yetkazadigan xavfli chiqindilarni ishlab chiqaradigan juda ko’p zavodlar. Bunday vazifani moddiy yo’qotishlarga qaramay, tubdan hal qilish kerak.

Uchinchidan, mamlakatga to’g’ridan – to’g’ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo’li orqali “yashil” ish o’rinlarini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot
2. The 5 Principles of Green Economy.
3. <https://www.greeneconomycoalition.org/news-and-resources/the-5-principles-of-green-economy>.
4. Богачева О., Смородинов О. Challenges to green finance in G 20 countries. Мировая экономика - международные отношения. 2017, 61 (10): 16-24
5. Вукович Наталья Анатольевна. «Зеленая» экономика: перспективы развития в России. УДК 332.1. <https://elar.urfu.ru/bitstream/>.
6. www.spot.uz
7. <https://www.eco-business.com/opinion/challenges-and-prospects-green-economy/>
8. Greening the Economy. https://t.me/green_econ/652
9. Sustainable investing. <https://www.lombardodier.com/home.html>
10. The greenest countries in the world. <https://www.theecoexperts.co.uk/>
11. Green bonds issued worldwide 2014-2023 | Statista



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
